

Tillabayeva Dilnoza Murodovna

Namangan davlat universiteti

tibbiyot fakulteti

PhD katta o'qituvchisi

dilnozatillabayeva1@gmail.com

UO'K 618:371.3.

**AKUSHERLIK YO'NALISHIDA SIMULYATSION TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASH: NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 4-KURS TAJRIBASI**

Annotatsiya: Maqolada Namangan davlat universiteti tibbiyot fakultetida 4-kurs talabalari uchun akusherlik amaliyot ko'nikmalarini simulyatsion texnologiyalar yordamida shakllantirish tajribasi yoritilgan. Simulyatorlardan foydalangan holda talabalarda tug'ruq jarayonini tushunish, homiladorlarga yordam ko'rsatish va asosiy amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: simulyatsion ta'lim, akusherlik, tibbiyot ta'limi, amaliy ko'nikmalar, talabalar tayyorgarligi.

Тиллабаева Дилноза Муродовна

Наманганский государственный

университет факультет медицины

PhD старший преподаватель

**ПРИМЕНЕНИЕ СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В АКУШЕРСТВЕ: ОПЫТ
4-ГО КУРСА НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

Аннотация: В статье описан опыт организации симуляционного обучения акушерским навыкам у студентов 4 курса медицинского факультета Наманганского государственного университета. Освещены методы формирования базовых практических умений, применение

демонстраций и индивидуального выполнения манипуляций с использованием тренажеров. Подчеркивается значимость поэтапного освоения клинических действий в условиях, приближенных к реальности.

Ключевые слова: симуляционное обучение, акушерство, практические навыки, медицинское образование, подготовка студентов.

Tillabaeva Dilnoza Muradovna

Namangan State University

Faculty of Medicine

PhD Senior lecturer

**APPLICATION OF SIMULATION TECHNOLOGIES IN OBSTETRICS: THE
EXPERIENCE OF THE 4- YEAR STUDENTS OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

Abstract: *This article presents the experience of introducing simulation-based obstetric training for 4th-year medical students at Namangan State University. The use of simulation tools for practicing essential skills such as assisting pregnant women and managing uncomplicated deliveries is analyzed. The importance of stepwise, hands-on learning in a realistic clinical setting is emphasized.*

Keywords: *simulation training, obstetrics, practical skills, medical education, student preparedness.*

Kirish

Hozirgi kunda simulyatsion texnologiyalar tibbiyot ta'limida muhim o'rin egallab bormoqda. Dastlab o'quv jarayoni uchun amaliy bazaning yetarli emasligi muammosi mavjud edi, ammo aksariyat tibbiyot oliy o'quv yurtlarida simulyatsion markazlarning rivojlanishi bilan bu muammo hal qilindi. Ular orqali talabalar xavfsiz muhitda amaliyotni o'rganib, haqiqiy klinik vaziyatlarga tayyorgarlik ko'radi. Akusherlikda bu juda dolzarb — chunki mutaxassislar tez va aniq harakat qilishni, shoshilinch holatlarda qaror qabul qilishni bilishlari kerak.[3]

Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti 2021 yildan boshlab faoliyat yuritmoqda. Hozirda oilaviy shifokorlikda akusherlik va ginekologiya fani

bo'yicha faqat 4-kurs talabalari tahsil olmoqda. Talabalar o'quv klinik amaliyoti davomida ma'lum vaqtni maxsus jihozlangan sinfda o'tkazadilar, u yerda homilador va tug'gan ayollarni parvarish qilish bo'yicha eng oddiy manipulyatsiyalarni o'rganadilar va mashq qiladilar. Shu sababli, akusherlik fanini o'qitish jarayonida asosiy e'tibor — boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Maqsad: talaba yoshlarining akusherlik va ginekologiya ko'nikmalarini o'qitishni optimallashtirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida simulyatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish.

Materiallar va usullar

Tadqiqot 2024-2025 o'quv yilida tibbiyot fakultetining 4-kurs talabalari (n=48) ishtirokida amalga oshirildi. Mashg'ulotlar maxsus jihozlangan simulyatsion sinfda olib borildi.

Qo'llanilgan metodlar

- 1) O'qituvchi tomonidan ko'rgazmali manipulyatsiya;
- 2) Simulyatorlarda talabalarining mustaqil amaliyot bajarishi;
- 3) Balli tizim orqali baholash;
- 4) Anonim anketa orqali talabalar fikrini o'rganish.

Simulyatorlar

- 1) Akusherlik qo'li maketlari;
- 2) PROMPT Basic Birth Model — normal tug'ruq simulyatsiyasi;
- 3) Manekenlar — homiladorga xizmat ko'rsatish va qon bosimini o'lchash amaliyoti uchun tonometr, fonendoskop.

Natijalar

Talabalar quyidagi ko'nikmalarni simulyatsion sinfda o'zlashtirdilar:

- homilador ayolni ko'rikdan o'tkazish, anamnez yig'ish;
- homila yurak urishi va bachadon tonusini baholash;
- tug'ruqqa tayyorgarlik ko'rish;
- tug'ruq jarayonida psixoemotsional qo'llab-quvvatlash;
- tug'ruqdan keyingi holatni baholash;
- gigiyenik va profilaktik parvarish amaliyotlari.

Anketalash natijalari

90% talabalar simulyatsion mashg'ulotlar amaliy bilimlarni mustahkamlashga yordam berganini aytdi;

87% ko'rgazmali namoyishdan keyin manipulyatsiyani mustaqil bajarish osonlashganini ta'kidladi;

93% talabalar amaliyotni faqat nazariy darsga nisbatan yaxshiroq tushunishganini bildirdi.

Muhokama

Simulyatsion texnologiyalar 4-kurs darajasidagi boshlang'ich akusherlik ko'nikmalarini shakllantirishda juda samarali ekani aniqlandi. Ular nafaqat nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan mustahkamlashga yordam beradi, balki talabalarda ishonch, jamoada ishlash va o'z harakatlarini baholash salohiyatini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, muammolar ham mavjud: simulyatsion jihozlar yetarli emas, amaliyot vaqti cheklangan. Bundan kelib chiqib, simulyatsion sinflarni texnika bilan to'liq ta'minlash va mashg'ulotlar sonini ko'paytirish tavsiya etiladi.

Xulosa

1. Namangan davlat universiteti tibbiyot fakultetining 4-kurs talabalari uchun simulyatsion mashg'ulotlar akusherlik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali usul bo'lib xizmat qilmoqda.

2. Amaliyotning ko'rgazmali va mustaqil bajarish shakli talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.
3. Simulyatsion sinf imkoniyatlarini kengaytirish, usullarni takomillashtirish va o'qituvchilarni tayyorlash ustuvor vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonova D.A. Tibbiyot ta'limida simulyatsion mashg'ulotlarning ahamiyati // O'zbekiston tibbiyoti jurnali. — 2022. — №3. — B. 41–45.
2. Axmedova M.M. Simulyatsion usullar orqali akusherlik ko'nikmalarini shakllantirish tajribasi // Ibn Sino merosi. — 2023. — №1. — B. 60–63.
3. Бандоренко Е.В., Хоронко Л.Я. Симуляционное обучение как ведущее направление развития медицины.// Мир науки. Педагогика и психология.2022.Том 10. №3 С2-7.
4. Сурмач Е.М., Малкин М.Г. Симуляционные технологии в медицинском образовании- за и против. //Журнал Гродненского государственного медицинского университета. 2019.Том 17. №6 С 712-715.
5. Гаврилова Д.В. Симуляционные технологии в медицине и образовании. // БМИК. 2019. №10. С 210-215.
6. Sadka N. Simulation in healthcare: The possibilities.// Emerg Med Australas. 2021;33(2);367-368. doi:10.1111/1742-6723.13758
7. Smith M., Jones A. Simulation in obstetric education: a systematic review // Medical Education. – 2021 -Vol. 55(3). – P.245-252.
8. Akusherlik va ginekologiyada simulyatsiya mashg'ulotlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, 2022. – 48 b.

